



ZAMONAVIY SHAROITDA OLIJ TA'LIM PEDAGOGIKASI:

NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY SHAROITDA OLY TA‘LIM
PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA
AMALIYOT INTEGRATSIYASI**

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Buxoro – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i hamda Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 20-maydagi “Ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish to‘g‘risida” gi 340-U sonli buyrug‘i ижросини таъминлаш мақсадида 2024 yil 24 may kuni Buxoro davlat universitetida “ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA’LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI” mavzusida Ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim sifatini oshirish, pedagogik ta’lim sohasida ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

Ushbu ilmiy to‘plam keng ilmiy jamoatchilik, Pedagogika masalalari bilan qiziquvchilar, pedagoglar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo‘ljallangan

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor, G.T. Boymurodova, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Sh.Sh.Olimov, N.N.Musayeva, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasida dotsenti B.T.Jo‘rayev.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

- | | |
|------------------|--|
| 1. O.X.Xamidov | – Universitet rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. T.H.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. B.R.Adizov | – BuxDU huzuridagi PKQT MO mintaqaviy markaz direktori, p.f.d., professor, a‘zo; |
| 4. Sh.Sh.Olimov | – Pedagogika kafedrasida mudiri, p.f.d., professor, a‘zo; |
| 5. M.A.Jumaeva | – Pedagogika kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib; |
| 6. F.N.Nurulloev | – Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo; |

Ilmiy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

- | | |
|------------------|--|
| 1. T.H.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais; |
| 2. Sh.Sh.Olimov | – Pedagogika kafedrasida mudiri, p.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. O‘.U.Rashidov | – Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo; |
| 4. F.N.Nurulloev | – Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo; |
| 5. A.Sh.Inoyatov | – Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekani, a‘zo |
| 6. N.N.Musaeva | – Pedagogika kafedrasida professori, p.f.d., a‘zo |
| 7. N.E.Azimova | – Pedagogika kafedrasida professori, p.f.n., a‘zo |
| 8. B.T.Juraev | – Pedagogika kafedrasida dotsenti, a‘zo; |
| 9. O.R.Ortiqov | – Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi, a‘zo; |
| 10. M.N. Amonov | – Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekan muovini, a‘zo |

TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN SAMARALI METOD VA TRENINGLAR

Xonzafarov O.O.,

BuxDU Pedagogika va psixologiya 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: B.T.Jurayev

BuxDU pedagogika kafedrasida dotsenti

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning ko'plab pedagogik va psixologik metodlari mavjud. Ularni "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida qo'llash kata samara beradi. Eng asosiysi metodlar va ularning mazmuni o'quvchilarning yoshiga, psixologik xususiyatlariga va qiziqishlariga mos bo'lishi.

Quyidagi metodlardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin:

"O'zaro yordam" metodi - oqituvchi bolalar faoliyatini shunday tashkil etishi kerak: birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatda bir-birlariga yordam berish orqali muvaffaqiyatga erishish ta'minlanishi lozim.

"Roli niqob" metodi - ushbu metoddan bolalarga boshqa kishining qiyofasiga kirish va uning nomidan gapirish taklif etiladi bunda turli xildagi millat vakillarini misol qilib bolalarga ko'rsatish mumkin.

"Tasodifiy savollar" metodi - o'quvchilar guruhlariga bo'linishadi va ularga vaziyat bilan bogliqlik kutilmagan savollar beriladi. Tasodifiy savollar va ularga berilgan javoblar jamoaviy tarzda muhokama qilinadi. Ushbu vaziyat tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga mos bo'lishi lozim.

"Do'stimningning sevimli kitobi" metodi - bolalarga sinfdagi o'rtoqlari qanday kitoblarni sevib o'qishni topish vazifasi taklif etiladi. Bunda ular kitobdagi turli millat vakillarining so'zlarini aytgan holatda ularga misollar keltirishadi.

"Ezgu so'z" metodi - ushbu metod yuqoridagi "Do'stimningning sevimli kitobi" metodi bilan deyarli bir xil. Bunda ham bolalar o'zlarini o'qigan kitoblardagi boshqa millat vakillari tomonidan ishlatilgan ibratli so'zlarni va gaplarni aytishadi.

"Kinostudiya" metodi - bolalarga mashhur filmlardagi voqealarni o'zlarining hayoti bilan bog'lagan holda parodiya etish vazifasi beriladi. Keyin uni tasvirlab berishga bolalar harakat qiladilar.

"Dunyo piramidasi" metodi - ushbu metodningning maqsadi shundan iboratki yer sayyorasida yashayotgan aholining milliy irqiy mansubligi xilma-xil ekanligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

"Tolerantlik o'lkasida" metodi - ushbu metodningning maqsadi o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, bolalarga tolerant fikrlashni o'rgatish va boshqalarning huquqlarni hurmat qilishini shakllantirishdan iborat. Ushbu metod matn, hikoya, sahna ko'rinishi misolida bo'lishi mumkin.

"Kuch do'stlikda" metodi - ushbu metod orqali bolalarda millatlararo tolerantlik va kommunikativ kompetentlik rivojlantiriladi.

"Biz va olam" metodi - ushbu metod bolalarda boshqalarning his-tuyg'ularni tushunish va ularda empatiya qobiliyatini shakllantirishda xizmat qiladi.

Shular bilan bir qatorda yuqori sinf o'quvchilarida tarbiya fanini o'qitish jarayonida tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Muammoli vaziyatdagi suhbat. Ushbu suhbat turi o'quvchilar bilan tahliliy izlanishli tarzda olib boriladi. Savol-javob ni tashkil etishda quyidagi qonun-qoidalarni hisobga olish zarur.

1. Savollar o'quvchilarning yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.
2. Savollarning mazmuni qaytarilmasligi lozim.
3. Savollar mazmuni o'zaro bir-biri bilan bogliq bolishi kerak.

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Tolerantlikning xilma-xil turlarini inobatga olgan holatda suhbatni quyidagi ko‘rinishda amalga oshirish mumkin.

Kommunikativ tolerantlikni shakllantirish uchun quyidagi muammoli savollardan foydalaniladi:

1. Nega odamlar muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar?

2. Boshqalarning fikr-mulohazalarini diqqat bilan eshita olish uchun insonda qanday sifatlar mavjud bo‘lishi kerak?

3. Sizga qanday holatda suhbatdoshingizning fikrini tinglash qiyinchilik tugdiradi?

4. Nima uchun ba’zi odamlar o‘zlarining fikrlariga qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?

5. Insonlar do‘st bo‘lishi uchun albatta bir xil yoshda bo‘lishi kerakmi?

6. Ikki inson bir birini yoqtirmasa do‘st bo‘la oladimi?

7. Do‘stlarlar bir-biriga yolg‘on gapira oladimi?

Madaniy tolerantlikni shakllantirish jarayonida quyidagi muammoli savollarni hal etishga e’tibor qaratilishi lozim.

1. Milliy madaniyatning umumbashariy ahamiyati qaysi jihatlarda namoyon bo‘ladi?

2. Madaniy jihatdan turli-tumanlik sizningcha ijobiy yoki salbiy?

3. Submadaniyatni qadriyat sifatida qabul qilish mumkinmi?

Gender tolerantlika oid suhbatlarda quyidagi savollar muhokama qilinadi:

1. Nega boshqa jins vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerak?

2. O‘g‘il bolalarning qizlarga nisbatan o‘zlarini ustun qo‘yishlari to‘g‘rimi?

3. Boshqa jins vakillari haqida ma’lumotga ega bo‘lishning zaruriyati nimada?

Diniy tolerantlikni shakllantirish jarayonida quyidagi savollarga javob olinadi:

1. Dinlarning umumiy jihatlari nimalardan iborat?

2. Boshqa dinga e’tiqod qiluvchi kishilarni o‘z diniga da’vat etish to‘g‘rimi?

3. O‘zga din vakillariga nisbatan toqatli bo‘lish uchun inson o‘zida qanday sifatlarni shakllantirish kerak?

Munozara metodi - bahslashishni talab etuvchi metodlardan biri munozarani tashkil etishdan oldin o‘quvchilarga quyidagi ko‘rsatmalar eslatib o‘tiladi:

1. Muammoni muhokama qilish uchun shay va tayyor bo‘ling muammoning mazmunini va mohiyatini anglab oling.

2. Muammo yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring va boshqalarga ham o‘z fikrlarini bildirishlari uchun imkon berib.

3. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarni diqqat bilan tinglang.

4. So‘zlayotgan o‘quvchini chalg‘itmang, ma’qul deb topmagan fikrlaringizni belgilab boring va so‘zga chiqish uchun ruxsat so‘rang.

5. Boshqalarning shaxsini va fikrlarini xurmat qiling, boshqalarning fikrlariga e’tiborli va tolerant bo‘ling.

6. G‘oyalarni tanqid qiling, ammo so‘zga chiqqan kishini emas. Shaxsiyat bilan bog‘liq jumalarni ishlatmang.

7. Munozara ishtirokchilari qabul qilgan qarorlarni hisobga oling, boshqalarning fikrlarini qadrlang.

8. Istalgan yo‘l bilan bahsda g‘alaba qozonishga harakat qilmang.

9. Albatta yakuniy xulosaga va qarorga keeling.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi mavzulardagi munozaralar o‘tkazish maqsadga muvofiq:

1. “Tolerantlik ko‘rinishlari va namoyon bo‘lishi”.

2. “Dinlararo tolerantlik”.

3. “Muqaddas islom dini - bag‘rikenglik dinidir”.

4. “Bizning jamiyatimiz tabaqalariga bo‘linmasligi lozim”.

5. “Irtiq kamsitish - insonni xo‘rlashning qo‘pol ko‘rinishi”.

O'quvchilarda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi o'yinli metodlardan foydalanish mumkin.

“Juftlik asosida tanishuv” o'yini - ushbu o'yinda o'qituvchi o'quvchilar guruhini juftliklarga bo'ladi va juftlar bir-biriga o'zlari haqida gapirib berishadi. Keyinchalik esa ular o'zlarining juftlarni tanishtirib berishadi.

Tushuntirish metodi - ta'limning og'zaki shakliga xos bo'lgan va barcha yoshdagi o'quvchilarga mos bo'lgan universal metod hisoblanadi. Ushbu metod orqali analiz (tahlil etish), sintez (umumiyashtirish), induksiya (umumiydan xususiyga qarab borish) va deduksiya (xususiydan umumiyga qarab borish) usullari amalga oshiriladi. Ushbu metod orqali o'quvchi-yoshlarga tolerantlik, tolerantlikning turlari, tolerantlikning tarixiy asoslari va bugungi kunda tolerantlikning ahamiyati haqida bilimlar beriladi.

Ta'limning faol metodlardan hisoblangan trening metodi tolerantlikni rivojlantirish uchun quyidagicha foydalaniladi:

Aloqa treninggi. Jamoaviy hikoya tuzish treninggi.

Treningning maqsadi:

1. O'quvchilarni bir-biri bilan tanishtirish.

2. O'quvchilar orasida do'stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish.

3. O'quvchilarga o'rtadagi ruhiy to'siqlarni yengishni o'rgatish.

Treningni o'tkazish tartibi: Mashg'ulot boshlanishidan oldin o'quvchilar raqamlangan qog'ozlardan birini tanlab olishadi. Raqamlar sinfdagi o'quvchilar soni bilan bir xil tayyorlanadi. O'quvchilar doira ko'rinishida tayyorlangan stollarga borib o'tirishadi. O'quvchilar joylarini egallagach, o'qituvchi hikoya mavzusini ular bilan kelishib oladi yoki biron bir mavzuni taklif etadi. Hikoya mavzusi o'quvchilarning yoshiga qiziqishlariga mos bo'lib, sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-axloqi, tolerantlik madaniyatiga mos bo'lishi kerak.

O'qituvchi hikoya aytishni o'zi boshlab beradi va ancha vaqtdan keyin hikoyani davom ettirishni birinchi o'quvchidan so'raydi. Birinchi o'quvchi hikoyani ozgina so'zlab bergach, hikoyani davom ettirish navbatdagi o'quvchiga beriladi. O'zlarining kartochkalaridagi raqamlarga ko'ra o'quvchilar hikoyani davom ettirib ketishadi. O'qituvchi hikoyaning mazmun-mohiyati mavzu doirasida bo'lishini kuzatib boradi va mavzudan chetlashishlar yuzaga kelganda buni to'g'rilab boradi. Ushbu treningda davradagi barcha o'quvchilar hikoyani davom etishlari lozim.

Hikoya tuzilgach o'qituvchi barchaga o'z minnatdorchiligini bildiradi va o'quvchilarga kerakli tavsiyalarni beradi.

Qadam-baqadam treninggi.

Treningning maqsadi: o'quvchilarning tolerant xulq-atvorni egallaganlik darajasini aniqlash.

Treningni o'tkazishning tartibi: ushbu mashg'ulot qadam-baqadam usuli asosida amalga oshiriladi, ya'ni trening 6 ta qadamdan iborat bo'lib, har bir qadamda o'quvchilar qandaydir faoliyat bilan shug'ullanishadi. Masalan: bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni aytishadi. So'zlar esa trening mavzusi yoki tolerantlika bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Birinchi qadam: o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchiga kartochka tarqatiladi. Kartochkada yozilgan so'zlarning antonimini o'quvchilar topishlari lozim. Masalan: Hamdardlik, rahmdillik, ochiq ko'ngillilik, insonparvarlik, ziyoratlik, sahovat, adolat, erkinlik.

Ikkinchi qadam: O'qituvchi o'quvchilardan har bir so'zlarga tarif berishlarini so'raydi.

Uchinchi qadam: o'quvchilar guruhlarga bo'linadi va o'quvchilar keltirilgan so'zlar orqali ertak yoki hikoya tuzishadi.

To'rtinchi qadam: o'quvchilar guruhlarning hikoyalari yoki ertaklari yuzasidan bir-birlari bilan savol-javoblar otkazishadi.

Beshinchi qadam: o'qituvchi tomonidan guruhlarning ishlari baholanadi.

Oltinchi qadam: o'qituvchi barchaga o'z tashakkurini bildirib, treningni yakunlaydi.

Panorama treninggi.

Treningning maqsadi: o'quvchilarga aniq bir muammoga yakka holda yoki guruh bilan fikr yuritib, hal etish, yechim topish orgatiladi.

Treningni o'tkazish tartibi: Trening boshlanishidan oldin o'qituvchi o'quvchilarga tolerantlik madaniyati haqida, unga ta'sir etuvchi salbiy omillar haqida ma'lumot beradi. Undan so'ng guruhni kichik guruhlarga bo'ladi. Guruhlar 4-5 tadan iborat bo'lib har birining tarkibida uch yoki besh tadan o'quvchi bo'lishi zarur. Keyinchalik esa oldindan tayyorlangan maxsus kartochkalar guruhlarga tarqatiladi. Har bir kartochkada muammoli vaziyat bayon etilgan bo'ladi. Shu tariqa o'quvchilar guruh bo'lib ishlay oldimi yoqmi uni oldindan ko'ra olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqichamaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-son qarori.
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. Tuz.: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. – T.: TDPU, 2013.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: «Iste'dod» jamg'armasi, 2008.
5. Sh.Sh.Olimov, I.A.Xajiyeva, B.T.Jurayev, M.A.Jumayeva Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi kitobi. – T.: "Kamolot" nashriyoti 2022.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

Sirojova Shokhida Niyozovna, METHODS OF PSYCHOLOGICAL WORK WITH SECONDARY SCHOOL STUDENTS	254
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna, BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINI O'RGANISH METODIKASI.....	257
Yodgorov Bobirjon Turobovich, O.R.Avezov. UZLUKSIZ TALIM TIZIMIDA BO'LG'USI PEDAGOGLARNI O`SMIRLARDA O`QUV FAOLIYATI MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	260
Nasimova Z.I. SHAXS RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI.....	263
Sharopov Sh.Sh. GRICE MAKSIMALARINING QISQACHA SHARHI VA MAZMUNI	265
Mekhmonova Nigina Fakhritdinovna. CRITERIA OF ARTISTRY IN LITERATURE	266
Sharopov Dilshod Shirinboevich, BAYROG'IM – FAXRU-G'URURIM	269
Xonzafarov O.O., B.T.Jurayev. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN SAMARALI METOD VA TRENINGLAR	271